

O'zbekiston Respublikasida Iste'mol narxlari indeksi (INI)

2025-yil dekabr oyi

Ma'lumotlar jadvaliga havolalar:

[MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha iste'mol narxlari indeksi](#)

[O'zbekiston Respublikasi bo'yicha barcha tovar va xizmatlar narxlari indeksi, o'tgan oyga nisbatan](#)

- I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI
- II. Hududlar kesimida yig'ma INI
- III. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlardagi INI
- IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi
- V. Uslubiy ma'lumotlar
- VI. Foydali havolalar

I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI

2025-yil dekabr oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi **100,9 %**, yillik nisbatda **107,3 %** ni tashkil etdi.


[Taqqoslash uchun: 2024 yil dekabr oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi 101,0 %, yillik nisbatda 109,8 % ni tashkil etgan.](#)

Yig'ma INI o'rtacha oylik o'sish sur'ati 2025-yilda **0,6 %** (2024-yilda **0,8 %**)ga teng bo'ldi.


Meva va sabzavot mahsulotlari narxlarining o'zgarishini hisobga olmaganda, oylik INI ko'rsatkichi **100,4 %** (2024-yil dekabr oyida **100,7 %**), yillik nisbatda **107,9 %** (2024-yil dekabr oyida **112,0 %**)ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati % da

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



Quyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha 2025-yilning dekabr oyida asosiy tovarlar va xizmatlar narxlarining o'zgarishlari keltirilgan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar bo'limi

Oy davomida asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan tuxum – **3,4 %** (yil davomida **-14,5 %**)ga, oliy navli bug'doy unidan non – o'rtacha **0,5 %** (yil davomida **+1,6 %**)ga, sut – o'rtacha **0,4 %**

(yil davomida **+5,7 %**)ga, paxta yog'i – o'rtacha **0,4 %** (yil davomida **+17,7 %**)ga, un – o'rtacha **0,3 %** (yil davomida **-4,7 %**)ga, suyakli mol go'shti – **0,5 %** (yil davomida **+25,0 %**)ga, suyakli mol go'shti – **0,5 %** (yil davomida **+23,9 %**)ga, qo'y go'shti – **0,5 %** (yil davomida **+26,8 %**)ga, parranda go'shtining narxlari o'rtacha **0,2–0,6 %** (yil davomida **+3,7 %** dan **4,2 %** gacha)ga o'sishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2025-yilning dekabr oyida import mol go'shti narxlari barqaror bo'lishiga qaramay, mahalliy go'sht narxi hisobiga respublikada 1 kilogramm mol go'shtining o'rtacha narxi 500–1 000 so'mga oshdi.

Oy davomida asosan guruch – **1,8 %** (yil davomida **-16,6 %**)ga, shakar – o'rtacha **2,3 %** (yil davomida **-4,8 %**)ga, kungaboqar yog'lari narxining **0,5 %** (yil davomida **+12,7 %**)ga pasayishi kuzatildi.

Asosiy meva-sabzavot mahsulotlaridan baqlajon – **55,9 %** (yil davomida **+8,0 %**)ga, bodring – **55,7 %** (yil davomida **+16,0 %**)ga, pomidor – **25,1 %** (yil davomida **+2,6 %**)ga, bulg'or qalampiri – **22,9 %** (yil davomida **-14,9 %**)ga, karam – **22,8 %** (yil davomida **+31,8 %**)ga narxlari sezilarli oshdi. Sabzi – **7,5 %** (yil davomida **+10,8 %**)ga, sitrus meva narxlarining **2,4 %** (yil davomida **+33,6 %**)ga sezilarli pasayishi kuzatildi.

Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari bo'limi

2025-yil dekabr oyidan boshlab ayrim hududlarda maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun tariflar oshirildi. Respublika bo'yicha o'rtacha hisobda ushbu xizmat turi bir oy ichida **3,0 %** ga qimmatlashdi. Oy davomida qolgan kommunal xizmatlar tariflarida o'zgarish bo'lmadi.

2025-yil davomida ushbu bo'limda narxlar va tariflarning o'rtacha darajasi **17,1 %**ga oshdi. Jumladan, tarmoq gaz narxi **39,2 %**ga, sovuq suv ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlari **35,1 %**ga, maishiy chiqindilarni olib ketish **32,5 %**ga, suyultirilgan gaz **25,0 %**ga, elektr energiyasi **18,8 %**ga oshdi. Issiq suv ta'minoti va isitish xizmatlari esa mos ravishda **11,9 %** va **11,5 %**ga qimmatlashdi. Turar joylarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun materiallar narxlari bir yilda **5,4 %**ga oshdi.

Sog'liqni saqlash xizmatlari bo'limi

2025-yil dekabr oyi davomida sog'liqni saqlash sohasidagi narxlar darajasi sezilarli darajada o'zgarmadi. Dori vositalari oy davomida **0,2 %**ga qimmatlashdi (yil davomida **+4,6 %**). Statsionar va ambulator davolash xizmatlari **0,2 %**ga oshdi (yil hisobida mos ravishda **+7,6 %** va **+6,3 %**). Sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar narxi esa oy davomida **0,1 %**ga oshdi (yil davomida **+10,0 %**).

Transport bo'limi

Benzin uchun INI oy davomida **102,4 %** (yillik nisbatda **111,9 %**)ni tashkil etdi. 2025-yilning dekabr oyida AI-80 marka benzinining narxi bir litri uchun 9 500 dan 9 900 so'mgacha, AI-91 va AI-92 uchun 10 500 dan 13 300 so'mgacha, AI-95 va AI-98 uchun 12 500 dan 18 000 so'mgacha oraliq'ida, hamda kuzatuvdagi eng qimmat markadagi AI-100 benzinining narxi bir litri uchun 21 000 so'mni tashkil qildi.

Taqqoslash uchun: dekabr oyida benzin narxlarini ro'yxatdan o'tkazish 600 ta obyektlarda amalga oshirildi va qayd etilgan narxlarning umumiy soni 1 000 tani tashkil etdi. Ulardan:

– AI-91 markasi bo'yicha umumiy 92 ta narx yig'ildi, shundan, 84 tasi onlayn kassa chek ma'lumotlaridan olindi. Ushbu markadagi benzinning o'rtacha narxi 0,2 % ga oshdi;

– AI-92 markasi bo'yicha umumiy 571 ta narx yig'ildi, shundan, 513 tasi onlayn kassa chek ma'lumotlaridan olindi. Ushbu markadagi benzinning o'rtacha narxi 0,2 % ga oshdi;

– AI-95 markasi bo'yicha umumiy 282 ta narx yig'ildi, shundan, 260 tasi onlayn kassa chek ma'lumotlaridan olindi. O'rtacha narxi 0,7 % ga oshdi;

– AI-98 markasi bo'yicha umumiy 30 ta narx onlayn kassa chek ma'lumotlaridan olindi, ushbu

markadagi benzinning o'rtacha narxi 0,8 % ga oshdi;

–AI-100 markasi bo'yicha umumiy 25 ta narx onlayn kassa chek ma'lumotlaridan olindi, ushbu markadagi benzinning o'rtacha narxi 0,5 % ga oshdi.

O'rtacha narxlarni aniqlash va benzin uchun INI hisoblashda benzin markasi bo'yicha savdosi, hududlar bo'yicha turli markalar narxlarining o'zgarishi, shuningdek, hududlar aholisi tomonidan iste'mol xarajatlarida benzina sarflanadigan umumiy xarajatlaridagi ulushi hisobga olindi. Umuman olganda, respublikada AI-92 markadagi benzin sotuvi ulushi yuqori bo'ldi, bu barcha o'rganilgan nuqtalardagi sotilgan benzinning 78 % (2025-yil noyabr oyida 57,0 %) ulushiga to'g'ri keldi.

Propan uchun oylik INI ko'rsatkichi **1,3 %** (yil davomida **-10,5 %**)ni va yuqori narx chegarasi 7 600 so'mni tashkil etdi. Metan narxi oy davomida o'zgarmadi va 2024-yil oxiriga nisbatan **29,9 %**ga yuqori darajada saqlanib qoldi.

Izoh: *amaldagi metodologiyaga ko'ra, avtotransport vositalari uchun gaz yoqilg'isi narxlari 10-dekabrden 20-dekabrgacha bo'lgan davr uchun qayd etilgan. Ko'rsatilgan davrgacha va undan keyingi narxlardagi o'zgarishlar INI hisob-kitobiga kiritilmagan.*

2025-yil dekabr oyida transport xizmatlari bo'yicha shahar atrofidagi poyezdda yo'l haqi **5,9 %**ga (yil davomida **+10,1 %**), shahar avtobuslari – **3,2 %**ga (yil davomida **+21,1 %**) oshdi, ichki va xalqaro yo'nalishlardagi aviaqatnov chiptalari esa **2,0 %**ga qimmatlashdi (yil davomida **+21,7 %**). 2025-yil dekabr oyida tayyor ovqatlarni yetkazib berish xizmatlari **1,0 %**ga qimmatlashdi (yil davomida **+6,3 %**).

Axborot va aloqa bo'limi

2025-yil dekabr oyida mobil aloqa xizmatlari o'rtacha **4,9 %**ga qimmatlashdi (yil davomida **+15,1 %**).

Ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'limi

Repetitorlik xizmatlari oy davomida o'rtacha **0,8 %** (yil davomida **+6,6 %**)ga, chet tillari kurslarida o'qish esa **0,3 %** (yil davomida **+6,6 %**)ga oshdi. Maktabgacha ta'lim xizmati narxlari o'tgan oyga nisbatan o'zgarishsiz qoldi (yil davomida **+17,0 %**), oliy ta'lim sohasidagi tariflar 2025-yil davomida barqarorligini saqlab qoldi.

Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari bo'limi

Oy davomida umumiy ovqatlanish xizmatlari narxlari **0,2–0,6 %**ga oshdi, shu bilan birga, mehmonxona xizmatlari narxlari oy davomida nisbatan barqaror bo'lib qoldi. 2025-yilda oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklarni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar o'rtacha **8,6 %**ga, mehmonxona xizmatlari esa **9,1 %**ga qimmatlashdi.

Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar bo'limi

2025-yilning dekabr oyida ushbu bo'limdagi xizmatlardan bank muassasalari xizmatlari uchun xaq to'lash **3,3 %** (yil davomida **+6,9 %**)ga va pul o'tkazmalari uchun xaq to'lash **0,9 %** (yil davomida **-6,1 %**)ga oshdi.

Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar bo'limi

Bo'limdagi tovarlar va xizmatlar uchun qisqa muddatli INI diapazoni **99,2 %** (tish cho'tkalari)dan **101,5 %** (ustara, soqol olish uchun lezviya)gachani tashkil etdi. Yillik INI bo'yicha ko'rsatkichlar chegarasi **101,3 %** (qo'l soatlari) – **128,7 %** (qimmatbaho metallardan yasalgan nikoh uzuklari)ni tashkil etdi.

Boshqa bo'limlarda tovar va xizmat narxlari o'zgarishi ta'siri yuqori bo'lmadi yoki yig'ma ko'rsatkichga sezilarli darajada ta'sir qilmadi.

Umuman, bo'limlar kesimida qisqa muddatli INI diapazoni **100,1 %** ("Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish")dan **102,7 %** ("Axborot va aloqa") oraliqida kuzatildi. 2024-yilning dekabr oyiga nisbatan qisqa muddatli INI ko'rsatkichi "Axborot va aloqa" bo'limidan tashqari barcha bo'limlarda past ko'rsatkichni qayd etgan.

2024-yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi **117,1 %** ("Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari"), quyi chegarasi – **99,7 %** ga ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar") yetdi.

2025-yilning dekabr oyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha INI, % da

Bo'lim nomi		2025-yilning noyabriga nisbatan	2024-yilning dekabriga nisbatan
I.	Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	101,5	105,4
II.	Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	100,3	106,1
III.	Kiyimlar va poyabzallar	100,2	102,7
IV.	Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,3	117,1
V.	Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	100,1	102,3
VI.	Sog'liqni saqlash	100,2	105,6
VII.	Transport	100,7	112,0
VIII.	Axborot va aloqa	102,7	108,9
IX.	Dam olish, sport va madaniyat	100,3	105,7
X.	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,2	105,1
XI.	Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	100,4	108,6
XII.	Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	100,8	99,7
XIII.	Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	100,3	108,2

II. Hududlar kesimida yig'ma INI

Hududlar kesimida qisqa muddatli va yillik INI bo'yicha o'rtacha respublika ko'rsatkichidan katta farq qayd etilmadi.

2025-yilning dekabr oyida hududlar bo'yicha INI, % da

Hududlar	2025-yilning noyabriga nisbatan	2024-yilning dekabriga nisbatan
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100,8	107,7
viloyatlar:		
Andijon	101,0	107,3
Buxoro	100,8	107,4
Jizzax	100,9	106,7
Qashqadaryo	100,9	107,0
Navoiy	100,8	107,1
Namangan	101,0	107,3
Samarqand	100,8	107,2
Surxondaryo	100,8	107,6
Sirdaryo	100,8	107,4
Toshkent	100,9	107,2
Farg'ona	100,8	107,7
Xorazm	101,1	107,5
Toshkent sh.	101,0	107,1

III. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlardagi INI

2025 yilning dekabr oyida tovarlarga qisqa muddatli INI **101,0 %** (2024-yil dekabr oyida **101,2 %**)ni va yillik nisbatda **105,4 %** (2024-yil dekabrda **104,7 %**)ni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha **101,5 %** (2024-yil dekabr oyida **101,8 %**)ni va yillik nisbatda **105,5 %** (2024-yilning dekabrda **102,4 %**)ni tashkil etdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha qisqa muddatli INI 2025 yil dekabr oyida **100,3 %** (2024-yil dekabr oyida **100,4 %**)ni, yillik nisbatda **105,1 %** (2024-yilning dekabrda **107,7 %**)ni tashkil etdi.


2025 yil dekabr oyida xizmatlar bo'yicha INI **100,7 %** (2024-yil dekabr oyida **100,7 %**)ni, yillik nisbatda **113,9 %** (2024-yilning dekabrda **126,7 %**)ni tashkil etdi.

Asosiy guruhlar bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati % da

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi

2025-yilning dekabr oyidagi qisqa muddatli yig'ma ko'rsatkichga "Oziq-ovqat va spirtsiz ichimliklar" yuqori ta'sir ko'rsatib, INI ko'rsatkichini **0,65 f.d. ga** (umumiy o'sishning **73 % i**) oshirdi. "Transport", "Axborot va aloqa" bo'limlaridagi narx o'zgarishlari oylik yig'ma ko'rsatkichni jami hisobda **0,15 f.d. ga** oshirdi. Qolgan bo'limlarida narxlarning oshishi yig'ma ko'rsatkichni yana **0,09 f.d. ga** oshirdi.

MIIT – 2018 bo'limlarining 2025-yil dekabr oyida yig'ma INI o'zgarishiga ta'siri, f.d.

o'tgan oyga nisbatan

I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	0,65
II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	0,00
III. Kiyimlar va poyabzallar	0,01
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	0,03
V. Uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	0,01
VI. Sog'liqni saqlash	0,01
VII. Transport	0,07
VIII. Axborot va aloqa	0,08
IX. Dam olish, sport va madaniyat	0,00
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,01
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,01
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	0,00
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,01

Jami ta'siri

+0,89 f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	2,33
II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	0,05
III. Kiyimlar va poyabzallar	0,27
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	2,07
V. Uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	0,12
VI. Sog'liqni saqlash	0,30
VII. Transport	1,11
VIII. Axborot va aloqa	0,26
IX. Dam olish, sport va madaniyat	0,08
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,17
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,16
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	0,00
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,38

Jami ta'siri

+7,30 f.d.

2025-yilning yanvar-dekabr oylari uchun INI o'sishiga eng katta ta'sir bu "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar", "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari", "Transport" bo'limlaridagi narxlar va tariflarning o'zgarishida bo'ldi (**+5,51 f.d.**, yoki umumiy o'sishning **75,5 % i**). Boshqa bo'limlar narxlarining o'zgarishi ta'siri ancha kam bo'lib, umumiy hisobda **1,79 f.d. ni** tashkil etdi.



V. Uslubiy ma'lumotlar

Narxlarni kuzatish va INI ni hisoblash uchun tovarlar va xizmatlarning iste'mol to'plami respublikaning barcha hududlari uchun yagona bo'lgan, aholi tomonidan ko'proq iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar guruhlarining reprezentativ tanlanmasini namoyon etadi. U 510 ta pozitsiyani, jumladan, 170 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, 250 turdagi nooziq-ovqat mahsulotlar va 90 turdagi xizmatlarni qamrab oladi. Yangi tovar va xizmatlarni iste'mol savatiga kiritish mezon – aholi umumiy iste'mol xarajatlarida ularning ulushi kamida 0,1 % bo'lishi hisoblanadi.

INI hisob-kitoblari salmoq vaznlarini shakllantirishga xizmat qiladigan aholi xarajatlarining tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlar (uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlari) va iste'mol narxlari o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik holatini aks ettirishini va iste'mol bozorining tovarlar va xizmatlar bilan to'yinganlik darajasini hisobga olgan holda tanlab olingan Nukus shahri, Toshkent shahri, viloyatlar markazlari va tanlanma asosda shaharlar va tumanlar markazlaridan to'planadi.

Tovarlar va xizmatlar narxlari va tariflari kuzatuv turg'un savdo va xizmat ko'rsatish sohasi shahobchalari va ko'chma savdo (palatka, rastalar v.b.) obyektlarida tanlanma asosida o'tkaziladi. Hisob-kitoblarda muqobil manbalardan olingan ma'lumotlar (soliq qo'mitasi ma'lumotlari va boshqa ma'muriy ma'lumotlar) ham qo'llaniladi.

Kuzatuvda 195 mingga yaqin narx kotirovkalari qamrab olingan.

Ma'lumotlarni to'plash har oyning 10-20-sanalari oralig'ida amalga oshiriladi.

INI respublika aholisining joriy iste'mol tuzilmasini hisobga olmaganligi sababli yashash qiymati emas, balki faqatgina narx o'zgarishlari ko'rsatkichi hisoblanadi.

Xususiy (shaxsiy) inflyatsiya – bu alohida uy xo'jaligining iste'mol savatidagi tovar va xizmatlar narxlari umumiy darajasining o'sishi. Xususiy inflyatsiyani tahlil qilishning zaruriyati shundan iboratki, shaxsiy iste'mol savati statistika organlari tomonidan foydalaniladigan o'rtachalashtirilgan iste'mol savatidan farq qilishi mumkin.

VI. Foydali havolalar

[Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari \(tariflari\) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha metama'lumotlar](#)

[O'zbekiston Respublikasi Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi \(O'R MIIT – 2018\)](#)

[Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: konsepsiya va uslubiyat \(2020\)](#)

Chop etish uchun mas'ul:
Narxlar statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent, Mustaqillik
shoh ko'chasi, 63
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel: +99871 203-80-00 (1100, 1101)

